ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

AHOLI DAROMADLARI VA TURMUSH DARAJASIGA TA`SIR ETUVCHI OMILLAR

Qurbonaliyeva Durdona
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Iqtisodiyot yo'nalish talabasi
gavharovdur@gmail.com

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20024866

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholi daromadlari va turmush darajasining iqtisodiy mazmuni hamda ularning jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, aholi daromadlarining asosiy manbalari, ularning tarkibi va turmush darajasiga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilingan. Maqolada daromadlarning ish haqi, tadbirkorlik faoliyati, mulkiy daromadlar va ijtimoiy transfertlar orqali shakllanishi hamda ularning aholining hayot sifati va farovonligiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, turmush darajasini baholashda sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik, turar joy va ijtimoiy himoya kabi omillarning muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar. Aholi daromadlari, turmush darajasi, ish haqi, real daromad, nominal daromad, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy farovonlik, bandlik, inflyatsiya, ijtimoiy himoya, tadbirkorlik daromadi, transfert to'lovlar.

Kirish

Har qanday mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim ko'rsatkichlaridan biri aholining daromadlari va turmush darajasidir. Aholi daromadlari fuqarolarning hayot sifatini belgilab beradi, ularning iste'mol imkoniyatlarini kengaytiradi, jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga va iqtisodiy o'zishga erishadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'iy nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugungi hayotdan rozi bo'lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasi bilan chambarchas bog'liq[1]. Daromadlar qanchalik yuqori bo'lsa, aholining yashash sharoitlari ham shunchalik yaxshi bo'ladi. Shu sababli ko'plab davlatlar iqtisodiy siyosatida aholi daromadlarini oshirish va turmush darajasini yaxshilashga alohida e'tibor qaratadi.

Aholi daromadlari — barcha aholiga tegishli bo'lgan pul hamda natural (mahsulot shaklida) tushumlar hamda ko'rsatilgan bepul xizmatlar yig'indisidir.Aholi daromadlari tarkibi — ish haqi, nafaqa, stipendiya, mukofot, foyda, dividend, qarz va lotereya yutug'i, bank to'lagan foiz, ko'chmas mulkdan olingan renta to'lovi va ijarasi, sug'urta qoplamalari va boshqalardan tashkil topgan bo'ladi.

1 – rasm. Aholi daromadlari ta’sir qiluvchi omillar [1]

Aholi daromadlari va turmush tarzi o'rtasidagi bog'liqlik — daromadlar darajasi turmush sifatini belgilaydi, chunki daromadlar yashash minimumi, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik ko'nikmalari va



boshqa omillarga ta'sir qiladi.

Aholining turmush darajasi - bu aholi farovonligi, ne'matlar va xizmatlar iste'molining darajasi, insonlarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish me'yorini tavsiflovchi sharoitlar va ko'rsatkichlar majmuidir. Boshqacha qilib aytganda, turmush darajasi jamiyatda yashovchi inson ehtiyojlarining rivojlanishi va qondirilishi darajasidan iborat bo'lib, u turli ne'matlarning iste'mol qilinishi yoki iste'mol uchun olinganlarining foydalilik darajasi bilan belgilanadi.

Aholi turmush darajasining turli komponentlari mavjud (1-jadval).

1 – jadval

Aholi turmush darajasi komponentlari[2]

BMT konsepsiyasi	Shved modeli
1. Salomatlik	1. Mehnat va mehnat sharoiti
2. Ovqatlanish	2. Iqtisodiy imkoniyat
3. Ta'lim	3. Siyosiy imkoniyat
4. Bandlik va mehnat sharoiti	4. Maktab ta'limi
5. Turar joy sharoiti	5. Salomatlik va tibbiy yordamdan foydalanish
6. Ijtimoiy ta'minot	6. Ijtimoiy imkoniyat (oila va oila

[1] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan
[2] O’quv qo’llanma

	munosabatlarining shakllanishi)
7. Kiyim-kechak	7. Turar joy
8. Dam olish va bo'sh vaqt	8. Ovqatlanish


1 – jadvalda turmush darajasi komponentlarini aks ettiruvchi BMT konsepsiyasi (1961 y.) va shved modeli (70-yillar) ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki, BMT konsepsiyasida asosiy e'tibor salomatlik va ovqatlanishga, shved modelida esa mehnat va mehnat sharoitlariga qaratilgan.

Aholi ehtiyojlarining xilma-xilligi, ularning cheksizligi, solishtirishning o'ziga xos qiyinchiliklari turmush darajasini tavsiflashda tizimli yondoshuvdan foydalanishga majbur qiladi. Nihoyatda xilma-xilligi bilan ajralib turuvchi, bir tomondan, insonlar turmushi moddiy sharoitlarining tarkibiy qismlarini, boshqa tomondan esa, ularning xulqini o'z ichiga oluvchi bu kategoriyani uch darajali tizim ko'rinishida ko'rsatish maqsadga muvofiq.

"Turmush darajasi" kategoriyasini tor va keng ma'nolarda baholash mumkin:

Tor ma'noda, aholining turmush darajasi, uning iste'mol darajasi va ehtiyojlarining qondirilish darajasi (daromadlar, harajatlar, ne'matlar va xizmatlarni iste'mol qilinishining o'lchanishi) bilan tavsiflanadi;

Keng ma'noda, aholining turmush darajasi, insonning rivojlanish darajasi (aholi salomatligining ahvoli va ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyatlari) hamda hayot va faoliyat sharoitlarining (yashash muhitining ahvoli va xavfsizligi) tavsifidir.



2 – rasm. Aholi daromadlari [3]

Bozor sharoitida aholi daromadlarining eng katta qismi pul shakliga ega. Qishloq aholisi o'zining tomorqa xo'jaligidan ham mahsulot olib daromad ko'radi va u natural daromadga kiradi. Shuningdek, aholining yordamga muhtoj qatlamlariga bepul mahsulot beriladi va xizmatlar ko'rsatiladi (bepul ovqatlanish, kiyim-kechak, doridarmon, transport va kommunal xizmati va hokazo) bular natural daromadlar hisoblanadi. Aholi daromadlari nominal va real daromadlarga bo'linadi. Nominal daromad

[3] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

aholi muayyan pul summasi shaklida olgan daromad bo‘lib, inflyatsiya ta’sirida uning xarid qobiliyati pasayishi mumkin. Real daromad — pul shaklidagi daromadga amalda qanday miqdorda iste’mol buyumlari va xizmatlar xarid etish mumkinligini ko‘rsatadi. Aholi jon boshiga hisoblangan real daromad aholi turmush darajasining umumlashgan va yaxlit ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Iqtisodiyotda aholi yalpi pul daromadlaridan barcha majburiy va ixtiyoriy to‘lovlar (soliqlar, qarz puli, badallar) chegirib tashlangandan so‘ng uning qo‘liga tegadigan daromad ham muhim ahamiyatga ega. Aholi qo‘liga tegadigan daromad miqdoriga soliqlar kuchli ta’sir etadi.

Aholi daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- mehnat faoliyati uchun mukofot (ish haqi, gonorar va boshqalar);
- tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad;
- mulkiy daromad (foizlar, dividendlar va boshqalar);
- transfertlar (nafaqalar, pensiyalar, stipendiyalar, o'tkazmalar va boshqalar).

Rivojlangan mamlakatlarda ish haqi daromadning 2/3 qismini tashkil etadi. Agar mamlakatda xususiy mulk ustivor, renta, aholi pul jamg‘armasi ko‘p bo‘lsa, bank to‘laydigan foiz puli salmoqli bo‘ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari tarkib jihatidan mehnatdan, tadbirkorliqdan, mulkdan olingan daromadlar va transfert (nochorlarga byudjetdan beriladigan nafaqa va yordam puli) kabi daromadlardan shakllanadi. Transfertlar nobozor daromadi, qolganlari bozor daromadi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida O‘zbekistondagi aholi daromadlarida bozor tizimiga xos yangi daromad turlari (tadbirkorlik, mulk daromadi kabilar)ning ko‘payib borishi kuzatiladi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-sentabr holatiga aholining umumiy daromadlari 825,3 trln so'mni tashkil etdi. Aholi daromadlari bo‘yicha real o‘sish sur’atlarini hisoblashda narx omillari ta’sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyatsiya ko‘rsatkichlarining asosiy turlaridan biri – iste’mol narxlari indeksi (INI)dan foydalaniladi. Iste’mol narxlarining o‘zgarishi sababli o‘tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o‘sish sur’ati 108,4 % ni tashkil etdi.

2 – jadval

2025-yilning yanvar-sentabr holatiga aholining umumiy daromadlari[4]

Ko`rsatkichlar	Hajmi trln , mln	Nominal o’sish surati, % da	Real o’sish surati , % da
Aholining umumiy daromadlari	825,3trln	118,4	108,4
Aholining jon boshiga umumiy darmadlari	21,8 mln	116,1	106,3

2025-yilning yanvar-sentabr holatiga ko‘ra, aholi jon boshiga umumiy daromadlar 21,8 mln so‘mni, aholi jon boshiga umumiy daromadlarning nominal o‘sish sur’ati 116,1 % ni va real o‘sish sur’ati 106,3 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga o‘rtacha umumiy daromadlar 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida, aholi jon boshiga o‘rtacha umumiy daromadlar bo‘yicha Toshkent shahri (52 029,6 ming so‘m), Navoiy (32 052,0 ming so‘m), Buxoro (25 972,3 ming so‘m), Xorazm (22 817,3 ming so‘m) va Toshkent (21 940,2 ming so‘m) viloyatlarida o‘rtacha respublika darajasidan yuqori ko‘rsatkichlar qayd etildi. Aksincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi (14 843,0 ming so‘m) hamda Namangan (15 832,1 ming so‘m), Surxondaryo (16 483,3 ming so‘m), Qashqadaryo (17 012,1 ming so‘m), Jizzax (17 074,1 ming so‘m), Sirdaryo (17 164,9 ming so‘m), Samarqand (18 110,6 ming so‘m), Farg‘ona (18 478,8 ming so‘m) va Andijon (19 378,6 ming so‘m) viloyatlarida aholi jon boshiga umumiy daromadlar bo‘yicha o‘rtacha respublika darajasidan quyi ko‘rsatkichlar qayd etildi.

3 – jadval

Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi

[4] www.stat.uz

(2025 yil, yanvar-dekabr)[5]

Hudud	Hajmi, ming so'm	Real o‘sish sur’ati, %
O‘zbekiston Respublikasi	21 830,0	106,3
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	14 843,0	102,2
Andijon	19 378,6	107,1
Buxoro	25 972,3	106,1
Jizzax	17 074,1	104,7
Qashqadaryo	17 012,1	106,6
Navoiy	32 052,0	105,4
Namangan	15 832,1	104,0
Samarqand	18 118,6	104,1
Surxondaryo	16 483,3	103,4
Sirdaryo	17 154,9	105,6
Toshkent	21 946,2	103,3
Farg‘ona	18 478,8	113,4
Xorazm	22 817,3	106,4
Toshkent sh.	52 029,6	110,3

Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o‘sishi Farg‘ona viloyatida (13,4 %) va Toshkent shahrida (10,3 %) hamda Qashqadaryo (6,6 %) va Xorazm (6,4 %) viloyatlarida kuzatildi. Shu bilan birga Buxoro (6,1 %), Sirdaryo (5,6 %), Navoiy (5,4 %), Jizzax (4,7 %), Samarqand (4,1 %), Namangan (4,0 %), Surxondaryo (3,4 %), Toshkent (3,3 %) viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida (2,2 %) va Andijon viloyatida (1,1 %) aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o‘sish sur’atlari o‘rtacha respublika darajasidan past ko‘rsatkichni tashkil etdi.

Mamlakatda aholi daromadlarining oshib borishi o’z navbatida ular turmush sharoiti va sifatining bosqichma – bosqich yaxshilanib borishiga zamin yaratmoqda.

Aholi turmush darajasi tushunchasini ularning hayot kechirishi uchun zarur bo’lgan moddiy va ma’naviy ne’matlar bilan ta’minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne’matlar bilan qondirilishi darajasi sifatida ta’riflash mumkin.

Aholi daromadlarini oshirish har qanday davlat iqtisodiy siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki aholi daromadi oshsa, odamlarning yashash darajasi yaxshilanadi, kambag‘allik kamayadi va mamlakat iqtisodiyoti barqaror rivojlanadi. Aholi daromadlarini oshirish uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish katta ahamiyatga ega. Buning uchun sanoat korxonalari, kichik biznes va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish kerak. Yangi tashkil etilgan korxonalar aholining bandligini ta’minlaydi va ularga doimiy daromad manbai yaratadi. Yoshlar va ayollarni ish bilan ta’minlash bu borada muhim omil hisoblanadi. Ikkinchidan, mehnatga haq to‘lash tizimini takomillashtirish zarur. Ish haqlarini bosqichma-bosqich oshirish, xodimlarni rag‘batlantirish va ularning mehnatini adolatli baholash orqali aholi qo‘lidagi pul miqdorini ko‘paytirish mumkin. Bu esa o‘z navbatida ichki iste’molni

[5] www.stat.uz

oshiradi va iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi. Yana bir muhim omil – ta’lim va kasb-hunar tizimini rivojlantirishdir.

Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan insonlar mehnat bozorida yuqori baholanadi va ko‘proq daromad topadi. Shu sababli aholiga yangi kasblarni o‘rganish imkoniyatini yaratish, malaka oshirish kurslarini kengaytirish muhimdir. Axborot texnologiyalari, xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish sohalarida malakali mutaxassislar tayyorlash katta foyda keltiradi. Bundan tashqari, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash ham aholi daromadlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, grantlar va soliq yengilliklari berilishi natijasida ko‘plab odamlar o‘z biznesini boshlash imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa nafaqat ularning o‘z daromadini oshiradi, balki boshqalar uchun ham yangi ish o‘rinlari yaratadi. Shuningdek, inflyatsiyani nazorat qilish ham juda muhimdir. Agar narxlar tez sur’atda oshib ketsa, daromadning oshishi sezilmay qoladi. Shu bois iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, narx-navoni nazorat qilish orqali aholi real daromadini saqlab qolish zarur.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, aholi daromadlari va turmush darajasi mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti hamda jamiyat farovonligini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan hisoblanadi. Aholi daromadlari fuqarolarning kundalik ehtiyojlarini qondirish, yashash sharoitlarini yaxshilash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Daromadlarning asosiy manbalari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar, mulkiy daromadlar hamda davlat tomonidan beriladigan ijtimoiy transfertlardan iborat. Ushbu daromadlarning barqaror o‘sib borishi aholining turmush darajasi yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, turmush darajasi faqat daromad miqdori bilan emas, balki sog‘liqni saqlash, ta’lim, bandlik, turar joy sharoiti, oziq-ovqat bilan ta’minlanganlik hamda ijtimoiy himoya tizimi kabi ko‘plab omillar bilan ham belgilanadi. Jamiyatda ushbu omillar qanchalik rivojlangan bo‘lsa, aholining hayot sifati ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Shu sababli davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosatda aholi daromadlarini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada aholining real daromadlari ortib boradi, turmush darajasi yaxshilanadi va jamiyatda iqtisodiy barqarorlik ta’minlanadi. Aholi farovonligini oshirish esa mamlakatning barqaror rivojlanishi va kelajak taraqqiyoti uchun mustahkam asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Abdullayev Y, Qodirov U. O‘qituvchi. “Iqtisodiyot nazariyasi” kitob -o’quv qo’llanma Toshkent - 2019.
3. Q.X.Abdurahmonov , X.X.Abduramanov O‘qituvchi . “Aholi turmush tarzi va daromadlari “ kitob Toshkent -2011
4. Y.X.Xudaybergenovna Toshkent davlat iqtisodiyot unversiteti O’qituvchisi – “Aholi daromadlari va turmush farafonligi oshirishning ayrim dolzarb masalalar “ “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” maqola-2022 .
5. https://stat.uz/uz/
6. https://kun.uz/